



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI HOKIMI

140157, Samarqand sh., Ko‘ksaroy maydoni, 1-uy. Tel.: (66) 2304270, 2312093, e-mail: samarkand@exat.uz, info@samarkand.uz

Samarqand viloyati Bulung‘ur tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida ID-4265 (V-1)

TAKLIF VA E‘TIROZLAR

1. Loyiha bo'yicha umumiy taklif va e'tirozlar quyidagilardan iborat:

1. Samarqand viloyati Bulung‘ur tumanida 2025-2026-yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,8 barobarga, qishloq xo‘jaligini 1,5 barobarga, xizmatlarni 2 barobarga, budget daromadlarini 1,3 barobarga oshirish, 2025-yilda ishsizlik darajasini 5 foizga, kambag‘allik darajasini 5,8 foizga qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Bunda 2025-yil yakuni bilan: 4,4 mingta ish o‘rni yaratish uchun 2025-yilda har bir mahallada kamida 40 tadan jami 2,2 mingta mikroloyihani amalga oshirish; 1,1 mingta ish o‘rni yaratish uchun 2025-yilda 7 ta “drayver” loyihalarni amalga oshirish; 3,3 ming nafardan ortiq aholi bandligini ta‘minlash uchun 3,1 ming gektar yerlarni o‘zlashtirish hamda 0,5 ming gektar eski uzumzorlarni bosqichma-bosqich yangilash; 300 ta ish o‘rni yaratish maqsadida “Kildon”, “G‘ubdin”, “A. Temur”, “Qo‘ng‘irot” kichik sanoat zonalaridagi 4,2 gektar bo‘sh turgan yer maydonini aukcion savdoga chiqarish orqali 20 ta loyihani ishga tushirish; 55 ta mahallani yangi yo‘nalishlarga ixtisoslashtirish orqali 6 mingga yaqin aholi bandligini va daromadlarini oshirish; tanlab olingan 550 ta xonadonlarning daromadini o‘rtacha 60-70 million so‘mga oshirish; urbanizatsiyani jadallashtirish hisobiga tumanda 2 mingdan ortiq oilani uy-joy bilan ta‘minlash; eng og‘ir ahvoldagi 6 ta mahallaning infratuzilmasini yaxshilash, xususan, tomorqa yerlarini sug‘orishni yaxshilash,

elektr energiyasi barqaror yetkazib berilishi, ichki yo'llarni ta'mirlash va boshqa infratuzilmani yaxshilash nazarda tutilsin. Iqtisodiyot va moliya vazirligining xalqaro moliya institutlari bilan birgalikda "hudud salohiyatini ro'yobga chiqarish" yondashuvi asosida "Bulung'ur tumanini ijtimoiy-iqtisodiy strategiyasi"ni va uni amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish bo'yicha takliflari ma'qullansin. Bunda iqtisodiy, ijtimoiy, muhandislik va transport infratuzilmasi jihatdan o'zaro bog'liq holda iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror rivojlantirish inobatga olinsin.

2. Sanoat hajmini 1,8 baravarga oshirish yo'nalishida: a) Hukumat komissiyasining 2024-yil 30-apreldagi 55-son bayoniga asosan, Bulung'ur tumani "G'o'bdin" massivi hududida 159 gektar yerning toifasi lalmi yerlar toifasidan sanoat toifasiga o'zgartirilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin. Samarqand viloyati hokimligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ushbu yer maydonlarida yuqori qiymatga ega, import o'rnini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan yuqori texnologik loyihalar joylashtirilishini ta'minlasin.

b) Energetika vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Bulung'ur tumani "G'o'bdin" hududidagi "Yangi O'zbekiston" massivini hamda "G'ubdin" kichik sanoat zonasidagi 3 gektar maydonga 10 ta sanoat loyihalari uchun talab etiladigan 16,6 MVt elektr energiyasi bilan ta'minlash maqsadida 110 kVli "Bulung'ur 1-2" havo tarmog'ining yaqin nuqtasidan 20 km 2 zanjirli tarmoq tortish va 110/35/10 kVli 2x25 MVA podstansiya qurish choralarini ko'rsin.

v) Samarqand viloyati hokimligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tijorat banklari bilan birgalikda 2025-2026-yillarda 2-ilovaga muvofiq dastlabki qiymati 45,3 milliard so'mlik 7 ta sanoat loyihalari amalga oshirilishi hisobiga 18,0 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hamda 120 ga yaqin yangi ish o'rinlari yaratilishini ta'minlasin.

g) Samarqand viloyati hokimligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, past quvvatda faoliyat ko'rsatayotgan 2 ta ("Samfruit Bio" MCHJ tomonidan yillik quvvati 12 ming tonna sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash va quritish hamda "Samarkand Garden Plast" MCHJ qo'shma korxonasi tomonidan yillik ishlab chiqarish quvvati 22 ming tonna bo'lgan meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash va muzlatish) sanoat korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish orqali 12,6 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarish hamda 1,0 million dollar eksportni amalga oshirish choralarini ko'rsin.

3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini 1,5 barobarga oshirish yo'nalishida: a)

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Samarqand viloyati hokimligi, mahallalarga birlashtirilgan tijorat banklari hamda hokim yordamchilari bilan birgalikda "Sayxunobod tajribasi" asosida: 2025-yil 20-yanvargacha qadar 39,4 mingta xonadonlardagi 3,9 ming gektar ekiladigan tomorqa yer maydonlarini to'liq xatlovdan o'tkazish; 2025-yil 1-fevralga qadar mahalla ixtisoslashuvi asosida tajribali agronom yoki "yetakchi tadbirkor"larni jalb qilgan holda 2025-yilda aholi tomorqalariga ekiladigan ekin turlari, mahsulot yetishtirish bo'yicha reja-grafikni tasdiqlash. Bunda, yetakchi tadbirkorlar tomonidan xonadonlarda brokkoli, rezavor mevalar va boshqa yuqori daromadli va eksportbop ekinlar urug'larini yetkazib berishni tashkillashtirish; tijorat banklari o'zlari birlashtirilgan har bir mahallada namuna qilib ko'rsatish uchun kamida 10 tadan jami 550 ta xonadonni tanlab olib, oilalarning daromadini o'rtacha 60-70 million so'mga oshirish bo'yicha ishlarni tashkil etsin. b) Samarqand viloyati hokimligi, Suv xo'jaligi vazirligi: tumandagi jami 5,0 ming gektar qishloq xo'jaligi yer maydonlarini kafolatli suv bilan ta'minlash maqsadida 2025-2026-yillarda "Qora ariq" (12,7 kilometr), "O'ng qirg'oq" (4 kilometr), "Chet ariq" (11,9 kilometr), "Oq ariq" (14,3 kilometr) kanallarni bosqichma-bosqich rekonstruksiya qilish; Bulung'ur, Jomboy va Payariq tumanlarida jami 2,7 ming gektar qishloq xo'jaligi yerlarini kafolatli suv bilan ta'minlash maqsadida Bulung'ur tumanida joylashgan "Do'stlik" va "Polvon" nasos stansiyalarini ta'mirlash ishlarini 2025-2026-yillar ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritsin. v) Samarqand viloyati hokimligi Qishloq xo'jaligi vazirligi 2025-2026-yillarda tuman hokimligi zaxirasidagi 3 060 gektar (shundan 60 gektar suvli) va tuman hududida joylashgan "Jomboy O'rmon" xo'jaligi tasarrufida bo'lgan 223 gektar, ya'ni jami 3 283 gektar yer maydonlarida "Bulung'ur O'rmon" xo'jaligini tashkil etish choralarini ko'rsin; g) Turonbank, Aloqabank, Xalq banki va Mikro kreditbank ko'magida "Qo'ng'iroq", "Gulobod", "O'roqli", "Bog'bon" va "Kaptarxona" mahallari hududida 41 gektar yer maydonida "bir kontur – bir mahsulot" tamoyili asosida gulkaram, bulg'or qalampiri va loviya yetishtirish yuzasidan 4 ta namunali loyihalarni amalga oshirsin; d) Samarqand viloyati hokimligi Qishloq xo'jaligi vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PF-143-sonli Farmoni asosida qo'shimcha ajratilishi rejalashtirilgan yer maydonlarining 68 gektarini tumandagi dehqonchilik rivojlanib kelayotgan "Kildon", "M. Ulug'bek", "Mingchinor", "F. Yo'ldosh", "Zarafshon", "Ipak yo'li"

va “Beshkubi” mahallalari hududidan ajratilishini ta’minlasin. Yer maydonlarini ajratishda ushbu mahallalardagi dehqonchilikda ko’nikmaga ega bo’lgan kambag’al oilalarga ustuvorlik berilsin. “Turonbank” mas’ulligida ushbu yer maydonlarida yetakchi tadbirkor “Saydmurod Begali bog’i” fermer xo’jaligi ko’magida yuqori daromadli, eksportbop “Xitoy noki” yetishtirishni yo’lga qo’yilishiga ko’maklashsin. ye) Agrosanoatni rivojlantirish agentligi Namangan viloyati hokimligi bilan birgalikda 2025-yilda “Do’stlik” va “G’o’bdin” mahallari hududida iqtisodiy jihatdan samarasiz va kam hosilli 350 gektar eskirgan va samarasiz bog’ va uzumzorlar o’rnida bosqichma-bosqich suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilgan holda serhosil, eksportbop mevali bog’larni barpo etsin. Bunda, tashabbuskorlar tomonidan 200 gektar shaftoli va gilos, 150 gektar yong’oqzorlar tashkil etish takliflari ma’qullansin. j) Samarqand viloyati hokimligi Qishloq xo’jaligi vazirligi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo’mitasi tumanda “Bulung’ur organic meat” MCHJ tomonidan quvvati 2 000 bosh chorva kompleksini tashkil etish uchun auksiondan sotib olingan 258 gektar yer maydonining 6,0 gektarida molxona qurish uchun lalmi yer maydonining yer toifasini o’zgartirish bo’yicha hujjatlarni Hukumat komissiyasiga kiritsin; z) Samarqand viloyati hokimligi Qishloq xo’jaligi vazirligi Qishloq xo’jaligi vazirligi, ATB “Turon bank” bilan birgalikda Bulung’ur tumanining “Xo’jamazgil” mahallasi hududidagi 2,0 ming gektar lalmi yer maydonini qayta foydalanishga kiritish orqali ushbu yer maydonlarining 500 gektarida intensiv bog’ va uzumzor tashkil etish hamda 1 500 gektarida sabzavot, kartoshka hamda dukkakli ekinlar yetishtirishni yo’lga qo’yish choralari ko’rsin. k) Samarqand viloyati hokimligi Kadastr agentligi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda uch oy muddatda Bulung’ur tumani “Fozil yo’ldosh” mahallasida joylashgan “Fozil yo’ldosh dehqon bozori” faoliyatini takomillashtirish va agrologistika markazini tashkil etish uchun zarur yer maydonlari ajratilishida amaliy yordam bersin. Bunda bozor hududiga yaqin joydan 4P-238 avtomobil yo’lida agrologistika markazini tashkil etish uchun 5,6 gektar yer maydoni ajratish hamda bozor hududida sovutgichli saqlash ombori va qadoqlash tizimi, avtoturargoh va avtomobillarga xizmat ko’rsatish shoxobchasini tashkil etish nazarda tutilsin. 4. Xizmatlar hajmini 2 barobarga oshirishga turtki berish uchun: a) Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish iqlim o’zgarishi vazirligi Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi vazirligi, Samarqand viloyat hokimligi M-39 avtomagistral

yo'lining "Samarqand", "Ulug'bek", "Kattaqishloq", "Yangiariq", "Olmazor" va "G'o'bdin" mahallalari hududidan o'tuvchi 24 kilometr yo'l bo'ylarida 75 ta savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari tashkil etish choralari ko'rsin. b) Samarqand viloyati hokimligi Qishloq xo'jaligi vazirligi bilan birgalikda ikki hafta muddatda turizm eksportini 2 barobarga oshirish hamda yer maydonlaridan samarali foydalanish maqsadida "Yangiariq" mahallasi, Xatcha qishlog'i hududidan o'tuvchi Bulung'ur kanali mintaqasida joylashgan 43-konturdagi 25,1 gektar yer maydoni toifasini o'zgartirish yuzasidan Hukumat komissiyasiga taklif kiritsin. Suv xo'jaligi vazirligi Samarqand viloyati hokimligi bilan birgalikda bir oy muddatda "Bulung'ur" kanalining muhofaza zonasini 30 metrdan 10 metrga qisqartirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga tegishli xulosa kiritilishini ta'minlasin; Avtomobil yo'llari qo'mitasi, Samarqand viloyati hokimligi M-39 avtomagistral yo'lining 1 057 kilometr qismidan "Yangiariq" mahallasi "Xatcha" qishlog'i hududidan o'tgan ichki yo'lini bog'lovchi 2 kilometr yangi yo'l qurilishini ta'minlasin. v) Iqtisodiyot va moliya vazirligi Turizm qo'mitasi, Samarqand viloyati hokimligi bilan birgalikda bir oy muddatda "Yangiariq" mahallasi, "Xatcha" qishlog'i hududidan o'tuvchi Bulung'ur kanali mintaqasida turizm va dam olish zonasini tashkil etish maqsadida 73 ta zamonaviy yirik xizmat ko'rsatish kompleksi, botanika bog'i, sport maydonchasi, va ko'ngilochar xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish bo'yicha "master reja" ishlab chiqsin; Bunda, Samarqand viloyati hokimligi huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" IK buyurtmachi etib belgilansin; Iqtisodiyot va moliya vazirligi master rejani ishlab chiqish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish uchun respublika budjetidan 1 milliard so'mgacha budjet ssudasi ajratsin; Samarqand viloyati hokimligi, Bulung'ur tumani hokimligi master reja asosida loyihalar amalga oshirilishini ta'minlasin. g) Madaniy meros agentligi Turizm qo'mitasi, Samarqand viloyati hokimligi bilan birgalikda o'n kun muddatda Bulung'ur tumanidagi Erganakli mahallasida joylashgan "Xo'ja Hofiz Merosiy" ziyoratgohi hamda "Sheroz qal'a" arxeologik yodgorligida osmon ostida muzey tashkil etish bo'yicha ilmiy yondashuvlar asosida taklif ishlab chiqib, amalga oshirilishini ta'minlasin; Bunda muzey atrofiga mehmonxona, 10 dan ortiq savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari tashkil etilishi hamda yiliga 50 mingdan ziyod turistlar jalb qilinishi nazarda tutilsin; turoperatorlarning Bulung'ur tumanini turizm xizmatlarining tashqi va ichki bozorlarida marketingini olib borish, "Xo'ja Hofiz Merosiy" ziyoratgohi hamda "Sheroz qal'a" arxeologik yodgorligi

“Xo‘jamazgil ota” ziyoratgohi, “Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li yodgorlik muzeyi” hamda qadimiy “G‘ishtli ota masjidi” kabi tarixiy qadamjolar imijini yanada rivojlantirish, bebaho turizm salohiyatini ommalashtirish hamda targ‘ib qilish, milliy turizm mahsulotlarini xalqaro bozorga kirib borishiga yo‘naltirilgan faol reklama xarajatlari Turizm qo‘mitasi huzuridagi Turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplab berilishi ta‘minlansin. d) Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Samarqand viloyati hokimligi birgalikda ikki hafta muddatda: ta‘lim muassasalari va o‘quv markazlarida har yili kamida 3 ming nafar yoshlarni xalqaro tan olingan sertifikatlash dasturlarida o‘qitish orqali 2030-yilga borib xorijiy til sertifikatiga ega yoshlar sonini 20 ming nafarga yetkazish; AyTi yo‘nalishida dasturlash, SMM, grafika dizayn, oraliqdan xizmat ko‘rsatish (VRO), IT English, PHP, Backend, Frontend, C++, axborot (kiber) xavfsizlik va Coursera platformasi kurslarida yiliga 2 ming nafardan ortiq yoshlar va xotin-qizlarni yuqori daromadli kasblarga o‘qitish bo‘yicha “Dasturi”ni ishlab chiqsin. ye) Samarqand viloyati hokimligi Madaniyat vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda tumandagi “Humo” nomli ko‘ngilochar istirohat bog‘ini 11 gektarga kengaytirish zamonaviy ko‘rinishga keltirish yuzasidan master rejasini ishlab chiqib, tasdiqlasin. Bunda: bog‘ hududida amfiteatr, bolalar o‘yingohi, savdo va umumiy ovqatlanish, yopiq turdagi akvapark, yoshlar mikrohududi sport maktabi va boshqa ko‘ngilochar xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish hamda 1,4 kilometr sog‘lomlashtirish yo‘laklari va tejamkor yoritish chiroqlari bilan ta‘minlash; master-rejani ishlab chiqish uchun Samarqand viloyati hokimligi huzuridagi “Yagona buyurtmachi xizmati” IK buyurtmachilik vazifasini bajaradi hamda master-rejani ishlab chiqish Respublika budjetdan ajratiladigan budjet ssudasi hisobidan qoplanishi nazarda tutilsin. j) Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi uch oy muddatda “Kildon” mahallasida joylashgan aholini kasbhunarga o‘qitish markazi faoliyatini takomillashtirish choralarini ko‘rsin. Bunda: mazkur markazda Bulung‘ur tumanida ehtiyoj yuqori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi sohasida yangi 6 ta hamda xizmat ko‘rsatish sohasida 11 ta kasblar bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish; Kasbga o‘qitish markazini zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta‘minlash, Samarqand shahridagi “Ishga marhamat” monomarkazi bilan hamkorlikda malakali mutaxassislarni jalb etgan holda o‘qitish jarayonini yo‘lga qo‘yishni ta‘minlasin. 5. Tuman markazini yashash va dam olish uchun jozibador hududga aylantirish va qiyofasini zamonaviylashtirish yo‘nalishida: a) Qurilish va

uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Samarqand viloyati hokimligi bilan birgalikda 2025-yil 1-fevraldan boshlab Bulung'ur tumani markazi qiyofasini zamonaviylashtirish, jumladan, aholi, tadbirkorlar hamda turistlarga qulay sharoitlar yaratishni hisobga olgan holda xorijiy konsultant va ekspertlarni jalb qilib, Bulung'ur tumanining bosh rejasini yangilashni boshlasin. Bunda: 2025-yil aprelga qadar Bosh rejani ishlab chiqish jarayonida Bulung'ur tumani markazidagi dehqon va buyum bozorlarini tartibga keltirish orqali aholi uchun qulay hudud yaratish va "zamonaviy kvartal" tashkil qilish hamda istirohat bog'ini aholi gavjum hududga aylantirish maqsadida 35 gektar hududning master rejasini ishlab chiqish choralarini ko'rsin; Iqtisodiyot va moliya vazirligi bir oy muddatda Bulung'ur tumani markazining Bosh rejasini va tanlangan hududning master rejasini ishlab chiqish uchun zarur mablag'larni ajratsin. b) Samarqand viloyati hokimligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi ikki oy muddatda tumanning "Guliston" va "Bulung'ur" mahallalaridagi eskirgan 7 ta ikki qavatli va 1 ta uch qavatli turar-joylar, 90 ta yakka tartibdagi turar va 17 ta noturar joylar o'rnida renovatsiya dasturi asosida tashabbuskor tadbirkorlar mablag'lari hisobidan 22 ta (1 320 xonadonli) zamonaviy, energiya tejamkor ko'p qavatli uylar qurilishini nazarda tutuvchi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini kiritsin. 6. Tanlangan tumanning ichki va tashqi transport bilan bog'liqligini oshirish. a) Samarqand viloyati hokimligi Transport vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi bilan birgalikda: 2025-yil yakuniga qadar Bulung'ur markazidagi (sobiq) "Bulung'ur Avtogaz" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga qarashli avtoshohbekatini hamda "Guliston" mahallasida "Boboyor Qayumov" xususiy korxonasiga qarashli 0,6 gektar yer maydonida yangi avtoshohbekatning zamonaviy talablar asosida qayta qurilishini; avtoshohbekat hududini obodonlashtirish, tuman aholisi va tashrif buyuruvchilarga xavfsiz, qulay hamda sifatli transport xizmatlari ko'rsatilishini ta'minlasin. b) Samarqand viloyati hokimligi Transport vazirligi "O'zmilliybank" AJ bilan birgalikda 2025-yildan boshlab: hududlararo qatnovlarda aholiga qulayliklar yaratish maqsadida, "tuman markazi va "Yangi O'zbekiston" massivi", "tuman markazi va "Erganakli" mahallasi", "tuman markazi va "Do'stlik" mahallasi", "tuman markazi va Jomboy tuman Sariqipchoq qishlog'i", "tuman markazi va Xatcha qishlog'i", "tuman markazi va Jomboy tumani Qoramo'yin qishlog'ini" bog'lovchi yo'nalishlarni hamda tuman markazida 2 ta ichki aylanma

yoʻnalishlarini; Bulungʻur tumani markazini Samarqand shahri markazi bilan bogʻlash maqsadida “Bulungʻur–Samarqand–Temiryoʻl vokzali” avtobus yoʻnalishini tashkil etsin. Bunda tuman markazi va Samarqand shahri oraligʻida qatnovchi avtobuslar yangi zamonaviy avtobuslarga almashtirilishi nazarda tutilsin.

7. Davlat-xususiy sheriklik loyihalari asosida amalga oshiriladigan loyihalar qamrovini kengaytirish. Samarqand viloyati hokimligi, Sogʻliqni saqlash vazirligi, Madaniyat vazirligi, Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi, Sport vazirligi, Suv xoʻjaligi vazirligi davlat-xususiy sheriklik asosida: 2025-yil 1-martga qadar: tuman markazidagi 11-son madaniyat markazi filialining boʻsh turgan binosida yangi xizmat turlarini tashkil qilish, jumladan, mehmonxona, zamonaviy xizmat koʻrsatish turlari va madaniyat markazi faoliyatini yoʻlga qoʻyish; “Chuyantepa” mahallasi hududida joylashgan 14-MTTning boʻsh turgan 0,22 gektar yer maydonida 100 oʻrinli va “Kattaqishloq” mahallasi hududidagi tuman hokimligining zaxira balansidagi 0,22 gektar yer maydonida 100 oʻrinli bolalar bogʻchasi tashkil etish chorasini koʻrsin; 2025-yil 1-iyulga qadar: tuman markaziy shifoxonasida laboratoriya tashkil etish orqali 6 ta turdagi yangi laborator analizlar oʻtkazishni yoʻlga qoʻyish; tumandagi istirohat bogʻida attraksionlar oʻrnatish, sport maydonchalari, oʻqitish va tayyorlov markazlarini, sayr yoʻlaklarini tashkil etish hamda boshqa infratuzilma obyektlarini yaratish; tumanda joylashgan “Doʻstlik” nasos stansiyasini modernizatsiya qilish choralarini koʻrsin.

8. Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va raqamlashtirishni tezlashtirish:

a) Samarqand viloyati hokimligi “Oʻzsuvtaʼminot” AJ, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda: uch oy muddatda Abu-Dabi taraqqiyot jamgʻarmasining kredit mablagʻlari hisobidan Bulungʻur tumani “Gʻubdin” mahallasida 4 kilometr ichimlik suv tarmoqlari va 1 ta suv inshootini qurish uchun 1,6 milliard soʻm yoʻnaltirish boʻyicha kelishuvlarni amalga oshirish; 2026-yil yakuniga qadar 17 ta suv inshooti hamda 70 kilometr tarmoqlar hamda 4 kilometr oqova suv tarmoqlarini yangi qurish va taʼmirlash hisobiga tumandagi ichimlik suv taʼminoti hamda oqova tizimini yaxshilash choralarini koʻrsin.

b) Samarqand viloyati hokimligi Energetika vazirligi 2025-yilda Jomboy tumanida qurilayotgan 110/35/10 kVli “Nazar” podstansiyasidan tumandagi mavjud “Gʻalaba” podstansiyasiga 110 kVli ikki zanjirli 20,0 kilometr tarmoq tortish, 1 dona 110/35/10 kVli podstansiya qurish va 2 dona 25,0 MVA kuch transformatori oʻrnatish orqali energiya taʼminotida muntazam muammolar

yuzaga kelayotgan mahallalarda elektr energiyasi ta'minotini yaxshilash choralarini ko'rsin. v) Samarqand viloyat hokimligi Energetika vazirligi Markaziy bank uch oy muddatda yashil tamoyil asosida ajratilayotgan imtiyozli kredit mablag'lari hisobidan 5 ta mahallada 100 ta xonadonlarga hamda hududdagi fermer xo'jaliklari nasoslariga namuna sifatida qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini (quyosh suv isitish qurilmalari, quyosh panellari) o'rnatish hamda energiya yo'qotishlarni kamaytirish orqali energiya samaradorlikni oshirish choralarini ko'rsin. 9. Bulung'ur tumanida muhandislik-kommunikatsiya, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarning manzilli ro'yxati 3-ilovaga muvofiq; ijtimoiy soha obyektlarining infratuzilmasi va moddiy-texnika bazasini yaxshilash bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarning manzilli ro'yxati 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Iqtisodiyot va moliya vazirligi Bulung'ur tumanida amalga oshiriladigan mazkur bandedagi loyihalar uchun ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari doirasida zaruriy mablag'larni moliyalashtirib borsin. 10. Samarqand viloyat hokimligi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Bulung'ur tumani markazida aholi va tadbirkorlarga qulaylik yaratish maqsadida tumandagi davlat boshqaruvi organlarini optimal joylashtirish hamda bo'shagan binolar va yer maydonlarini xususiy sektorga sotish taklifiga rozilik berilsin. Bulung'ur tumanidagi davlat boshqaruvi organlari ko'chiriladigan tashkilotlar va binolar ro'yxati 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Samarqand viloyat hokimligi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Kadastr agentligi, tuman hokimligi bilan bilan birgalikda ikki oy muddatda tumandagi davlat boshqaruvi organlarini optimal joylashtirishni ta'minlasin. Bulung'ur tumanidagi ayrim davlat boshqaruvi organlari ko'chirilgandan so'ng elektron onlayn-auksion savdolariga chiqariladigan davlat ko'chmas mulk obyektlari ro'yxati 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. 11. Quyidagilar: Bulung'ur tumani hokimining tegishli qaroriga asosan, "A. Temur" ko'chasi 26-uy manzilida joylashgan "Bulung'ur dehqon bozori" MCHJ ta'sisshiligidagi tashkil etilgan "Obod bozor" MCHJga ajratilgan 4 gektar yer uchastkasining 2,1 gektar qismi hokimlik yer zaxirasiga qaytarilgan holda "Anglesey food" MCHJga (keyingi o'rinlarda – tashabbuskor) savdo majmuasini qurish uchun ajratilganligi hamda tashabbuskor tomonidan qurilish-montaj ishlari yakuniga yetkazilmagan bino bugungi kunda foydalanilmasdan

bo'sh turganligi; "Obod bozor" MCHJga ajratilgan yer uchastkasining qolgan 1,9 gektar qismi uzoq muddatdan buyon bo'sh turganligi sababli uni Bulung'ur tumani hokimligi zaxirasiga o'tkazish to'g'risidagi murojaati ma'lumot uchun qabul qilinsin. 12. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Kadastr agentligi, Samarqand viloyati hokimligi: ikki oy muddatda "Obod bozor" MCHJ tasarrufidagi bo'sh turgan va foydalanilmayotgan 1,9 gektar yer uchastkasini hamda tashabbuskorning qurilishi tugallanmagan savdo majmuasini 2,1 gektar yer uchastkasi bilan birga Bulung'ur tumani hokimligi yer zaxirasiga o'tkazish; Bulung'ur tumani hokimligi zaxirasiga qaytarilgan "Mingchinor" mahallasi, "Oqtepa" ko'chasidagi jami 4 gektar yer maydoni va bino va inshootlar negizida tuman hokimligi ta'rischiligidagi zamonaviy savdo majmuasi barpo etish maqsadida mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida yangi bozor tashkil etish; ikki oy muddatda Bulung'ur tumani A. Temur ko'chasi 26-uy manzilida joylashgan "Bulung'ur dehqon bozori" MCHJ tuman hokimligi bilan kelishilgan holda loyiha asosida ekobozor g'oyasini saqlagan holda savdo kompleksini qurish sharti bilan ommaviy savdolarga chiqarishni tashkil etsin. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tashabbuskorning savdo majmuasini baholash natijalariga ko'ra, Bulung'ur tumani hokimligining murojaati asosan tashabbuskorga Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan kompensatsiya to'lab berilishini ta'minlasin. 13. Iqtisodiyot va moliya vazirligi Samarqand viloyatining asoslantirilgan hisob-kitoblariga asosan ishlarni jadallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda yangi ish o'rinlari yaratish maqsadida, 2025-yilda davlat budjetida nazarda tutilgan mablag'lar hisobidan 70 milliard so'm mablag' ajratish choralari ko'rsin. Samarqand viloyati hokimligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi tumanni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan zaruriy xarajatlarni respublikaning 2025-yilga mo'ljallangan budjet parametrlarida aks ettirilishini ta'minlasin. 14. Aholini biznesga jalb qilish va bandligini ta'minlash orqali daromadini oshirish bo'yicha Hududiy ishchi guruh tarkibi 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Hududiy ishchi guruhlarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin: mazkur qaror bilan belgilangan topshiriqlar va amaliy chora-tadbirlar ijrosini tashkil etish va muvofiqlashtirib borish; "Sayxunobod, Uychi, Zarbdor va G'ijduvon tumanlari" tajribalari amalga oshirilishini tashkil etish; tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq muammo va takliflarning hal etilishini ta'minlash. Samarqand viloyati hokimi (A. Boboyev) hududiy ishchi guruhga yuklatilgan

vazifalar ijrosi o'z vaqtida sifatli amalga oshirilishini doimiy nazorat qilib borsin.

15. Belgilansinki: a) mazkur qaror ijrosi: har olti oyda bir marta Vazirlar Mahkamasi Bosh Vazir o'rinbosari (Qo'chqorov)da; har chorakda bir marta Samarqand viloyati hokimligi tomonidan xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashi yig'ilishida; har chorakda kamida bir marta hududiy ishchi guruhi tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashi yig'ilishida mutasaddi vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari ishtirokida tanqidiy muhokama qilinadi; b) Iqtisodiyot va moliya vazirligi, tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda: har chorakda kamida bir marta joyiga chiqqan holda belgilangan yo'nalishlardagi vazifalarning ijrosini tanqidiy tahlil qilib, yuzaga kelgan muammo va kamchiliklarni, jumladan, respublika darajasida hal qilinadigan masalalarni bartaraf etish choralarni ko'rib boradi; har chorak yakuni bilan mazkur qaror ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritib boradi.

16. Mazkur qarorda belgilangan topshiriq va vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga hamda belgilangan muddatlarda amalga oshirilishiga Samarqand viloyati hokimi A. Boboyev shaxsan mas'ul etib belgilansin.

17. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Bosh vazir o'rinbosarlari A. J. Ramatov hamda J. A. Qo'chqorov zimmasiga yuklansin.

1-ilova 69-banddan keyin yangi band kiritish Tumanda elektr ta'minotini mustahkamlash uchun 22 dona RLND (42,3 mln.so'm), 115 dona temir beton stunlar (175,2 mln.so'm), 15,0 km AS-50 sim (132,0 mln.so'm), 85 dona traves (15,3 mln.so'm), 290 dona izalyator (8,7 mln.so'm), APVPU1-120 kabel 310 m (51,2 mln.so'm), 2 dona SK-22 opora (7,2 mln.so'm), TM-3 60 dona (4,9 mln.so'm), SIP-2 kabel 9,2 km (220,1 mln.so'm), SIP-4 kabel 7,2 km (85,2 mln.so'm) hamda 2 dona paveshinniy (1,1 mln.so'm) larni o'natish. Qurilish mantoj ishlariga 17,0 mln.so'm. (jami ta'lab etiladigan mablag' 760,2 mln.so'm)

1-ilova 71-banddan keyin yangi band kiritish Umumfoydalanishdagi avtomobil yo'llarining M39 Almati - Bishkek - Toshkent - Shahrisabz - Termiz 1037-1061 km oroliq qismi, 4R47 "Bulung'ur sh.-Urgut sh. -M39 avtoyo'li" avtomobil yo'lini 18-30 km. oraliq qismi, 4R238 "Samarqand sh.-Bulung'ur sh.-To'ron q.-Alamluk q." avtomobil yo'lining 23-32 km oraliq qismi, 4K517 "Oqtepa q.-Quvondiq q.-Kildon q." avtomobil yo'lining 4-6, 8-9, 11-12, 14-15 km oraliq qismi, 4k517a "Mullajon qishlog'iga." avtomobil yo'lining 0-9 km oraliq qismi, 4n-503 Quvondiq q. - Beshbo'ydoq q. avtomobil yo'lining 0-9 km oraliq qismi, 4n-554 Navoiy fermerlar uyushmasi - Qumqishloq q. avtomobil yo'lining 0-3 km

oraliq qismini ta'mirlash jami 86 km 28 650,0 mln.so'm hamda ichki yo'llarning 2 km 1 350,0 mln.so'm avtomobil yo'llarini ta'mirlash choralari ko'rsin. 4-ilovaga 6-band kiritish Xo'jamazgil MFYdagi 10-son maktabining bo'sh turgan xududidan 120 o'rinli yangi MTT qurish. o'rni: 120, amalga oshirish: 2026 yil, loyihaning qiymati: 5 520,0 mln.so'm. moliyalashtirish manbasi: 2026 yil ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida. mas'ul ijrochilar: Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Samarqand viloyati hokimligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi

1. 1-ilovani 1-jadval 144-yacheyka elementi olib tashlansin

2. 1-ilovani 1-jadval 162-yacheyka elementi olib tashlansin

3. 1-ilovani 1-jadval 274-yacheyka elementi quyidagi tartibda bayon qilinsin

“Sarqipchoq” mahallasidagi “Eshnazar Saidmurod Begali bog'i” fermer xo'jaligiga negizida **16 gektar** nok, gilos va olma ko'chatlarini yetishtirishni yo'lga qo'yish orqali “Kildon”, “Kichikkildon”, “Sayiltepa” va “Sarqipchoq” mahallalari aholi xonadonlarini bog'dorchilikka ixtisoslashtirish.

4. 1-ilovani 1-jadval 297-yacheyka elementi olib tashlansin

5. 1-ilovani 1-jadval 374-yacheyka elementi olib tashlansin

6. 2-ilovani 1-jadval 31-yacheyka elementi olib tashlansin

7. 2-ilovani 1-jadval 101-yacheyka elementi olib tashlansin

Viloyat hokimi v.v.b.



ABILOV FERUZ
NEMATULLAYEVICH

15-Yanvar 2025-yil